



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 7 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуревна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;  
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Abduxamidov Islombok*

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT

MUHOJIRLIGI TARIXI ..... 10-18

*Фарманова Гульнара Комилевна*

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ

УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ..... 19-24

*Индиаминова Шоура Амриддиновна*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО

СРЕДНЕВЕКОВЬЯ ..... 25-29

*Mirzakhamdamova Dildora Zafarovna*

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA

IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH ..... 30-35

*Ismoilova Parvina*

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN

KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) ..... 36-41

*Jomurodov Lazizbek Islomovich*

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH

JARAYONI ..... 42-46

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ

РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ ..... 47-54

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna*

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI

TADQIQ QILISH ..... 55-61

*Mamadaliyev Ulug'bek*

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI ..... 62-69

*Jalilov Arslon Xoshimovich*

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI

BAHOLASH ..... 70-75

*Kamchibekov Farxod Olimjonovich*

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS

IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI ..... 76-82

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIyatida YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING

TRANSFORMATSIYALASHUVI ..... 83-87

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i>	
МАHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI .....	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i>	
ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ .....	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i>	
О'ZBEKİSTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TİZİMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI .....	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i>	
О'ZBEKİSTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEKNOLOGIYALARНИNG IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI .....	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i>	
SIYOSIY E'TIQOD: UNING TİZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI .....	117-122
<i>Nasrullahov Ravshanxon Sirojxonovich</i>	
VATANPARVARLIKNI IJTIMOIY-MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i>	
ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK .....	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI Dagi MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI .....	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i>	
LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA .....	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i>	
O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR .....	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i>	
O'ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKALARINING PRAGMATIK TAHLILI .....	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i>	
RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI .....	155-159
<i>Облоқурова Шахло Асрор қизи</i>	
ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ .....	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i>	
KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI .....	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i>	
"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i>	
NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI .....	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i>	
АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ .....	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLIGIK BIRLIKLER KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i>	
TARIXIY-BADIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромова Нигина Ойбековна</i>	
ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmuddinova Mehribul Najmuddin qizi</i>	
NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEHNİKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i>	
"NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Сайдов Акрам Акмалович</i>	
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i>	
TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMoya QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i>	
КРИПТО-АКТИVLAR НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i>	
KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i>	
FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i>	
ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i>	
ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukutov Bobur</i>	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI VA GERMANIYA FEDERATİV RESPUBLİKASIDA TOVAR BELGİLARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i>	
INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKİSTON	

**RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O’RNI .....** 283-289

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ ..... 290-297

*Ibrohimov Azimjon Abdumomin o’g’li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI ..... 298-306

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ ..... 307-317

*Маматкулов Камолиддин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИГ АҲАМИЯТИ ..... 318-323

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra’no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO’LGAN BOLALARDA O’Z-O’ZINI NAZORAT QILISH KO’NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 324-329

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna*

UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTAB O’QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI ..... 330-341

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA ARALASH O’QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ..... 342-346

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO’YICHA MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI ..... 347-357

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR ..... 358-363

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o’g’li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA ..... 364-369

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG’IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI ..... 370-375

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIY TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI ..... 376-381

**Received:** 30 June 2024

**Accepted:** 5 July 2024

**Published:** 15 July 2024

*Article / Original Paper*

## **SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE SPIRITUAL TECHNOLOGIES CHARACTERISTIC OF THE NEW ERA OF UZBEKISTAN**

**Suleymanov Sarvar Sunatullaevich**

Researcher of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**Abstract.** The article shows the socio-philosophical foundations of modern spiritual technologies of Uzbekistan with scientific evidence. The analysis of the past heritage of our people, which started from a long time ago, shows that the spiritual life of our society was not formed by itself, in a vacuum. From this point of view, the positive influence of spiritual development on the development of society has been analyzed on a socio-philosophical basis on a scientific basis.

**Keywords:** Spiritual values, spiritual life, philosophical culture, Amir Temur, Timurids, spiritual growth, high morality.

## **O'ZBEKİSTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVİY TEXNOLOGİYALARİNG İJTİMOİY-FALSAFIY ASOSLARI**

**Suleymanov Sarvar Sunatullayevich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonning yangi davrga xos bo'lgan ma'naviy texnologiyalarining ijtimoiy-falsafiy asoslari ilmiy dalillar bilan ko'rsatilgan. Xalqimizning uzoq davrlardan boshlangan o'tmishdagi merosini tahlil qilish jamiyatimizning ma'naviy hayoti o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaganidan dalolat beradi. Shu nuqtaiy nazardan ma'naviy taraqqiyotning jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy asosda tahlil qilingan.

**Tayanch tushunchalar:** Ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy hayat, falsafiy madaniyat, Amir Temur, Temuriylar, ma'naviy yuksalish, yuksak axloq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N16>

**Kirish.** Bugungi kunda O'zbekiston deb ataluvchi Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi va ma'naviy qadriyatları yuzaga kelgan qadimiy makonlardan biridir. Aynan shu joyda Imom Buxoriy, At-Termiziy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, G'ijduvoniy, Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi allomalar yetishib chiqqan. Ular qoldirgan meros nafaqat xalqimiz, balki jahon madaniyatini xazinasidan munosib o'rinn olib, insoniyatning ma'naviy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgani butun dunyoda e'tirof etilgani bejiz emas.

Xalqimizning uzoq davrlardan boshlangan o'tmishdagi merosini tahlil qilish jamiyatimizning ma'naviy hayoti o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaganidan dalolat beradi. Uning vujudga kelishi va rivojlanishida Vatanimizga xos ko'plab ijtimoiy-falsafiy omillar

asos bo'lib, unda xalqimizga xos ma'naviy talablar, axloq-odob qoidalari o'z aksini topgani shubhasiz. Bu borada yurtdoshlarimizga xos jamoaviylik tuyg'usining ma'naviy hayotga ta'siri ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy-falsafiy omillar genezisi va dinamikasining asl mohiyatini ifodalaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "Sharq olamida, jumladan, O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz... Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning, ma'naviy merosning amaliy ifodasidir" [1]. Demak, jamiyatimizning ma'naviy hayoti va uning dinamikasiga'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-falsafiy bunday qadriyatlar asrlardan-asrlarga ma'naviy meros sifatida o'tib kelayotgani rad etib bo'lmas haqiqatdir. Shu jihatdan qaraganda, jamiyat hayoti va tafakkuridagi falsafiy madaniyat va bilan birga, har bir davrga xos bo'lgan ijtimoiy-falsafiy munosabatlar ma'naviy hayot dinamikasining asosiy tamoyillarini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jamiyat hayotining turli sohalaridagi islohotlarda yaqqol namoyon bo'ladigan ma'naviy o'zgarishlar dinamikasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan madaniy taraqqiyot va ayni paytda mafkuraviy tamoyillarning o'zgarishlari jarayonining o'ziga xos hosilasi bo'lishi mumkin. Bunday holda jamiyat ma'naviy hayot o'zgarishlar dinamikasi falsafiy madaniyat va mafkura uchun muayyan asos yoki ijtimoiy mezon emas, balki bu sohadagi hatti-harakatlar, jumladan, davlat siyosati, turli tashkilotlar va fuqarolik jamiyatni institutlaring hamkorlikdagi faoliyatining natijasi tarzida namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, jamiyatning hayotida xalq tarixi va taraqqiyoti jarayonida ro'y bergan falsafiy jarayonlar, uning boshqa xalqlar tomonidan istilo etilishi yoki bunday istilodan qutilib, o'zi mustaqil rivojlanishi bilan bog'liq voqeа va hodisalar muqarrar ravishda aks etadi. O'z navbatida, bu nafaqat uzoq o'tmish davrlar, balki bugungi mustaqillikka erishilgan davr voqeliklari ham jamiyat ma'naviy hayoti dinamikasida aks etishi haqida fikr yuritish imkonini yaratadi. Ya'ni, xalq istiqlol, unga erishish va uni mustahkamlash jarayonlari o'z davri jamiyat ma'naviy hayoti o'zgarishlar dinamikasi uchun ijtimoiy-falsafiy asos bo'lgani singari, istibdod zahmatlari ham unda albatta o'ziga xos tarzda o'z ifodasini topadi.

Bular bir davlat yoki millat tomonidan istilo qilingan xalq ma'naviyatining gurkirab o'sishi haqida gap yuritib ovvora bo'lishning keragi yo'q albatta. Negaki, bunday sharoitda jamiyat ma'naviy hayoti dinamikasi uchun keng imkoniyat ochilishi mumkin emas Chunki, hech bir davrda ro'y bergan mustamlakachilik siyosati bunga yo'l qo'ygan emas. Tarixda bosib olingan xalqni ma'naviy kamolotini o'ylagan bosqinchilar, ma'naviy asoratga solingen ellarni istibdod va mustamlakachilik iskanjasidan ozod qilgan mustamlakachilar bo'lgani haqida biror-bir misol uchramagani ham buni isbotlaydi. Buning o'rniga barcha zamonlardagi istibdodchi bosqinchilar egallab olingan yurtni vayron qilish, aholini ezish, uning ma'naviy hayotini izdan chiqarish, bu boradagi qadriyatlarini, asori-atiqalarini, ma'naviy boyliklarini yo'qotish yo'lidan borganlar.

Jahon fotixlari deya nom olgan qadimgi dunyo imperatori Makedoniyalik Aleksandr yoki Rim imperiyasining asoschilaridan biri Yuliy Sezar ham, mug'ul bosqinining boshlovchisi Chingizzon va uning Botuxon kabi nomdor vorislari ham shu yo'ldan borganlar. Ular faoliyatida ham bosib olingen xalq ma'naviy hayotini izdan chiqarish jarayoni yaqqol namoyon bo'lib turishi, boshqa bosqinchi lashkarboshilarning o'rta asrlar so'nggida Janubiy va Shimoliy Amerikada hamda Avstraliyada amalga oshirgan xunrezliklklari fikrimizni yaqqol isbtolaydi.

Bundan farqli tarzda, xalqning istiqlolga erishishi, o'zi tarbiyalagan yurtboshilar rahbarligida o'ziga xos taraqqiy etishi, o'zining ma'naviy hayoti o'zgarishlar dinamikasi uchun imkoniyatga ega bo'lishi mumkinligi shubhasiz. Masalan, xalqimizning mug'ul bosqinchilaridan qutulib, milliy davlatchiligini tiklagan XIV asr oxiri XV asr boshlari, ya'ni Amir Temur va temuriylar davridagi ma'naviy hayot rivoji misol bo'lishi mumkin.

Mohir harbiy sarkarda atoqli davlat arbobi Amir Temur o'z hayotini Vatan ozodligi xalqining farovonligi, yurt obodligi uchun sarflagani ma'lum. Uning davrida nafaqat go'zal bog'lar buniyod qilindi, madrasalar va masjidlar qurildi, mamlakatimiz ma'naviy sohasida o'zgarishlar ro'y berdi va milliy davlatchilik shakllandi, balki xalqimiz ma'naviyati yuksalib, uning taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan muhim tadbirlar amalga oshirildi. Ayni shu davrda madaniyat va ilm-fanga nihoyatda katta e'tibor qaratildi, Temur o'z saroyida olimu fuzalo va ilohiyot ilmi arboblari bo'lgan Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar ilm-fan va badiiy ijod bilan shug'ullandilar. Amir Temur davrida Samarcand Sharqning eng go'zal shahriga aylandi va bu haqda ispan sayyohi R.G.Klavixo ham uning tarovati to'g'risida qoyil qolgan va bu haqda o'z esdaliklarida alohida qayd etgan edi. Temur nafaqat Hindiston, Xitoy, arab mamlakatlari bilan aloqalarning kuchayishi, balki dunyoning boshqa xalqlari va davlatlari bilan tashqi munosabatlar o'rnatishga katta e'tibor berdi. Bu o'z navbatida xalqning iqtisodiy tafakkurini o'stirdi va ma'naviy hayot o'zgarishlar dinamikasi uchun moddiy asoslarni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvuf ta'limoti katta mavqega erishdi va asosiy mafkura sifatida markazlashgan davlatning ijtimoiy-falsafiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Islom dini iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad-vazifalarni amalga oshirishda Temur va uning vorislari uchun tayanch mafkura, xalq falsafiy madaniyatini shakllantirishning g'oyaviy asosiga aylandi va uning ta'limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron naqshbandlik tariqatining yirik shayxlari bo'lmish Sayyid Amir Kulol, Shayx Abu Bakr Tayobodiy, Mir Sayyid Barakalarni o'zining pirlari sifatida hurmat qilgan, ularning o'gitlari va maslahatlarini qadrlaganlar [3]. Ushbu allomalar ham mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotish, turli janjal va nizolarni bartaraf qilish, el-yurt orasida haqiqat va adolat o'rnatishda Temurga yordam bergenlar, uning faoliyatiga ko'maklashganlar. Yurt obodligi, xalq tafakkuri o'sishi, ma'naviy hayot yuksalishi uchun ushbu zotlarning xizmati katta bo'lgan. Shohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi temuriyzodalar ham Sohibqiron Temur boshlab bergen va jamiyat ma'naviy hayoti dinamikasida muhim ahamiyatga molik ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, ilm-fanning ko'p sohalarida yuksalishga erishishga harakat qildilar. Bu borada matematika, astronomiya bilan birga tarix, adabiyot, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqalarga ham alohida e'tibor berildi, badiiy adabiyot va she'riyat rivojlanib, jahondagi eng ilg'or adabiy muhit shakllandi. Aynan o'sha davrda "Gul va Navro'z" muallifi Lutfiy (1366-1465), "Behro'z va Bahrom" kitobini yozgan Binoiy (1453-1512), "Tazkirat ush-shuar" ("Shoirlar haqida tazkira")muallifi Davlatshoh Samarcandiy, "Yusuf va Zulayho", "Mahzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") kitoblari muallifi Durbek (XIV-XUasrlar), Hofiz Xorazmiy (XIV-XUasrlar), Ismat

Buxoriy (1365-1436), Atoiy (XV asr) va boshqalarningasarlarida bunday ma'naviy yuksalish yaqqol namoyon bo'lgan edi, deyish mumkin.

Temur va uning vorislari davridagi ma'naviy hayot o'zgarishlar dinamikasini o'sha zamon tarixchilarining asarlari asosida ham o'rganish mumkin. Bu borada ayniqsa, Abdurazzoq Samarqandiyning (1413- 1482) "Matlaa as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" ("Ikki dengizning qo'shilishi"), Hofizi Abruning (1361-1430) "Zubdat at-tavorix" ("Tarixlarning sarasi"), Muyiniddin Isfizoriyning (1494 yilda vafot etgan) "Ravzat al-jannat fi avsof madinat", Fosih Havofiyning (1375-1442) "Mujmali fosihiy", Sharafiddin Ali Yazdiyning (1454 yilda vafot etgan) "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiyning (XIV asr oxiri XV asrning boshi) "Zafarnoma" kabi tarixiy asarlari o'z zamonasining ijtimoiy-falsafiy jarayonlari bilan bog'liq xalqimiz ma'naviy hayoti yangilanishini aks ettirgan muhim manbalar ekanligi shubhasiz.

Shu bilan birga, mashhur tarixchilar Mirxon (1433-1498) va Xondamir (1475—1535), faylasuf olim Sa'diddin Taftazoniy (1322-1392), buyuk astronom Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1449), o'z davrining taniqli olimlari Qozizoda Rumiya va G'iyosiddin Jamshid Koshiy, butun dunyoga mashhur shoir va mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501), temuriylar xonadoniga mansub mashhur shoh va shoirlar Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yil) kabi allomalar ijodi ham o'sha davr ma'naviy hayot yangilanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ular ijodining mevasi bo'lgan ko'plab asarlar, ayniqsa "Ziji Ko'ragoni", "Xamsa", "Xazoyin ul-maoni" va "Boburnoma" kabi kitoblar butun jahon ma'naviyatini xazinasini boyitgan [10].

**Tahlil va natijalar.** Xalqimiz ma'naviy hayoti o'zgarishlar dinamikasining o'sha davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy va falsafiy asoslari milliy davlatchilikning tiklanishi, markazlashgan davlat tashkil topishi, moddiy farovonlik ortishi bilan birga ilm-fan rivoji, inson aql-zakovatining yuksak namunalarini ko'rsatgan qomusiy olimlar yetishib chiqqanligi va ularning o'lmas asarlari yaratgani bilan belgilanadi. Aynan mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tilgani ushbu asoslarining eng muhim poydevori bo'lgani aniq, albatta. Chunki bunday ijtimoiy-falsafiy taraqqiyot va uning ta'sirida ro'y bergan ma'naviy yuksalish natijasida yurtimiz sarhadlari obod bo'lib bordi, mamlakatda tinchlik o'rnatildi, aholining hayoti farovonlashdi. Bu tahlitda amalga oshirilgan tub islohotlar va yangilanishlarning samaradorligiga erishilgani tufayli madaniy-ma'rifiy sohalar va ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar ro'y bergani Amir Temur boshlab bergen temuriylar davri Renessansining eng asosiy xususiyatlardan biridir.

Bularning barchasi , millatparvar Amir Temur va temuriylarning xalqimiz ma'naviy taraqqiyoti uchun falsafiy-iqtisodiy asoslarni yaratgani bilan birga, o'sha davrda odamlarning ruhiyati, ma'naviyati, kelajakka ishonch tuyg'ularini o'sib borishi uchun zamin hozirlaganini yaqqol ko'rsatadi. Ana shuning uchun ham xalqimiz o'sha davrdagi ma'naviy yuksalish, hayotdagi o'zgarishlar, ozod va mustaqil rivojlanish zamoniga o'zini boshlab borgan Sohibqiron Temur nomini asarlar osha ardoqlab kelmoqda. Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda unga qo'yilgan haykallar, uning nomidagi ordenning mavjudligi, ulug' bobomizga hurmat ramzi bo'lgan nomlar va unga atalgan asarlar, Shohruh, Ulug'bek, Alisher, Bobur kabi ismlarni haligacha farzandlarmizga qo'yilishi buning yaqqol isbotidir [8].

Shu bilan birga, bunda buyuk sohibqiron amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari va o'sha davrdagi ulug' siyomolarning ezgu amallaridan ma'naviy qarzdorlik, ular merosiga mos bo'lish, endilikda bu buyuk zotlar ishini munosib davom ettirish kabilar bugungi jamiyat ma'naviy hayoti uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'layotganini alohida ta'kidlash lozim. Aslida,

ma'naviy hayot o'zgarishlar dinamikasini ijtimoiy-falsafiy jarayonlar tadriji va ta'siriga nisbatan tahlilidan kelib chiqadigan eng asosiy xulosalaridan biri ham ana shundadir.

Bu esa, o'z navbatida, istiqlolga erishish va mustaqil taraqqiyot imkoniyatiga ega bo'lishning ma'naviy hayot o'zgarishlari va dinamikasi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, mustamlakachilik avvalo, bosqinchilik, irqchilik, kolonializm, imperializm, buyuk davlatchilik iddaosi, buyuk millatchilik shovenizmi kabi turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'lganini ko'ramiz. Ular ayrim jihatlariga ko'ra, bir-biridan farq qilsa-da, mohiyatan bir xil – bosqinchilik, zulm va zo'ravonlik kabi hatti-harakatlarni turlicha izohlashlardan iborat. Afsuski, insoniylikka xilof bo'lgan, bashariyatning kelajagiga, uning hamjihat yashashiga xavf soladigan bunday mafkura shakllari dunyoning turli burchaklarida hozir ham mudhish qiyofasini namoyon qilmoqda [4].

Mustamlakachilik va bosqinchiliklardan azob ko'rmagan istibdod domiga tushmagan, uning zaxmatlaridan ezilmagan xalqlar tarixda juda ko'plab topiladi. Bizning xalqimiz ham o'tmishda ana shunday mustamlakachilik iskanjasiga bir necha bor tushgan. Gohida tez orada istiqlolga erishib, o'z taraqqiyot yo'liga tushib olgan, gohida esaузоq vaqt cho'zilgan istibdod va istilolar xalqimiz taraqqiyotini sekinlashtirgan. Bunday istilolarning mudhish oqibatlari uning tarixiy xotirasida va ma'naviy hayotida o'chmas asoratlar qoldirib, o'sha davrlardagi jamiyat ma'naviy hayoti dinamikasini izdan chiqargan. Shunisi diqqatga sazovorki, bunday ayanchli oqibatlar va zaxmatli zamonlar qancha davom etishidan qat'iy nazar, xalqimiz qaddini rostlayvergan va oxir-oqibat o'z mustaqilligi, milliy davlatchiligin qayta tiklashga erishgan. Bu esa, jamiyat ma'naviy hayoti dinamikasida o'ziga xos tarzda aks etgan, u o'sib borgan va har gal yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan.

Shu ma'noda, xalqimiz ma'naviyatining o'tmishdagi genezisi va dinamikasida Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida shakllangan hayot tarzi, azaliy qadriyatlar va g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Vatanimiz sarhadlarida shakllangan zardo'shtiylik, uning bosh kitobi — "Avesto", Moniy ta'limoti, "Moniy yozuvi", mazdakiylit harakati kabilarning ham bunday ezgu ijtimoiy-falsafiy jarayonlarda o'z shrni va ahamiyati bor, albatta. Vatan ozodligi yo'lida jon fido etgan Muqanna boshchiligidagi harakat nafaqat O'rta Osiyoda, balki jahonning boshqa o'lklarida ham aks-sado bergen. Vatanimiz hududida o'sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyat, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-falsafiy g'oyalar va yuksak axloqiy xalqimiz ma'naviy hayoti o'zgarishlar dinamikasi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi mamlakatimizda ia'naviy hayot o'zgarishlar dinamikasi bilan bog'liq jarayonlar xalqimizning ezgu qadriyatlarga tayanib dunyo sivilizatsiyasiga qo'shayotgan betakror hissasini, istiqlol yo'lidagi erishilayotgan yutuqlar sifatida tushunilishi bejiz emas. Ushbu tushuncha bugungi kunda yurtimizni jahon mamlakatlari qatoridan munosib o'ren egallashi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatni barpo etish, xalqimizning moddiy va ma'naviy salohiyatini mustahkamlash, O'zbekistonning shon-shuhuratini dunyoga yoyishga keng imkoniyatlar yaratuvchi eng asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajagimizning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – T.: "O'zbekiston", 2018. -64 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019.
4. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: "Шарқ", 2004.
5. Азимов С. Фуқаролик жамияти ва баркамол авлод тарбияси. // Конституция – мамлакатимиздаги демократик, либерал ислоҳотларнинг асоси ва гаровидир" мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Т.: - Vneshinvestrom MChj нашриёти. 2014. – 118-120 б.
6. Жўраев Н. Ўзбекистоннинг маънавият стратегияси. Т.: Маънавият, 2016. – 32 бет
7. Ибрагимов О. Ижтимоий ва маънавий соҳа – сиёсатнинг концептуал негизи. // "Санъат ва маданият масалалари ёшлар нигоҳида" мавзудаги илмий-назарий конференцияси материаллари. Т.: "Наврӯз" нашриёти. 2016. – 91 б.
8. Отамуродов С. Ўзбекистонда маънавий-рухий тикланиш. -Тошкент, 2003;
9. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. - Тошкент: O'zbekiston, 2013. – 456 б.
10. Очилдиев А. Миллий истиқлол ғояси ва миллатлараро муносабатлар. –Т.: Маънавият, 2007
11. Парсонс Т. Система современных обществ. – М.: Аспект Пресс, 1998. – 277 с.;
12. Пахрутдинов Ш. Барқарор тараққиёт ва раҳбар масъулияти. –Т.: Akademiya, 2011. - 304 б.
13. Турсунов А. "Жамиятимиз тараққиёти ва маънавий – маърифий ислоҳотлар". // Миллий ғоя – бизнинг ғоя (Матн) / - Т.: "Турон замин зиё", 2016. – 49-51 б.
14. Умаров Б., Жабборов Ш. Глобаллашув шароитида маънавий тарбия муаммолари. -Т.: "Академия", 2011. 156-б.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 7 (4) – 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулити чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).